

NURIDDIN SOBUNIY VA UNING “ BIDAYA FI USULID DIN ” ASARI
TAHLILI

Abdullayeva Mastura Kamoliddin qizi

*O‘zbekiston Xalqaro Islomshunoslik Akademiyasi
Islomshunoslik yo‘nalishi 1-kurs magistranti*

ANNOTATSIYA: Ushbu ilmiy maqolada Movarounnahrning yirik mutakallimlaridan biri — Ahmad ibn Mahmud ibn Abu Bakr Nuriddin Sobuniyning hayoti, ilmiy merosi va kalom ilmi maktabi rivojiga qo‘shgan hissasi keng qamrovda tahlil qilinadi. Tadqiqotda Sobuniyning hanafiy-maturidiya ta‘limoti doirasida shakllangan ilmiy qarashlari, kalom va fiqh yo‘nalishlaridagi metodologik yondashuvlari hamda uning asarlarida aks etgan teologik-epistemologik tamoyillar manba asosida o‘rganildi.

Maqolada, xususan, “Bidaya fi Usulid Din”, “Kifoya fil Hidayah” va “Muntaqo min Ismatul Anbiya” asarlarining mazmuni, qo‘lyozma an‘analari va ularning Maturidiya maktabi taraqqiyotidagi o‘rni ilmiy tahlil qilinadi. Sobuniyning Faxriddin Roziy kabi mutafakkirlar bilan olib borgan ilmiy bahslari, uslubiy jihatdan sodda, ammo dalillarga boy bayon tarzi uning teologik merosini yanada muhimlashtirgan omillar sifatida baholandi.

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston, Turkiya va xalqaro ilmiy nashrlardagi ma‘lumotlar asosida tayyorlangan bo‘lib, Sobuniy merosining zamonaviy islomiy tadqiqotlar kontekstidagi ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: Nuriddin Sobuniy, Maturidiya, Hanafiya, kalom, fiqh, Bidaya fi Usulid Din, teologiya, Movarounnahr.

ABSTRACT: This article offers a comprehensive analysis of the life, scholarly legacy, and theological contributions of Ahmad ibn Mahmud ibn Abu Bakr Nuriddin Sobuniy, a prominent mutakallim and jurist of medieval Transoxiana. The study examines Sobuniy’s intellectual formation within the Hanafi-Maturidi tradition, exploring his methodological approach to theology (kalām), jurisprudence, and doctrinal interpretation.

Special emphasis is placed on his major works—“Bidaya fi Usul al-Din,” “Kifaya fi al-Hidaya,” and “Muntaqo min Ismat al-Anbiya”—including their textual structure, manuscript tradition, and epistemological significance in the development of the Maturidi school. His well-documented scholarly debates with figures such as Fakhr al-Din al-Razi, as well as his clear, concise, and argument-based writing style, are highlighted as important elements of his enduring influence.

This research synthesizes materials from multiple contemporary and classical sources, and manuscript-based research, demonstrating Sobuniy’s pivotal role in the consolidation and transmission of Sunni-Maturidi doctrine. The findings reaffirm his importance in Islamic intellectual history and the continued relevance of his works in modern theological scholarship.

Keywords: Nuriddin Sobuniy, Maturidi theology, Hanafi jurisprudence, kalam, Bidaya fi Usul al-Din, Islamic theology, Mawarannahr.

KIRISH

Islom aqidaviy tafakkuri tarixida Movarounnahr zaminida shakllangan ilmiy maktablar alohida o‘rin egallaydi. IX–XII asrlar davomida Buxoro, Samarqand, Marv kabi shaharlarda kalom, fiqh va hadis ilmlari yuqori darajada rivojlangan, bu hududdan yetishib chiqqan olimlar esa butun musulmon dunyosiga ta’sir ko‘rsatgan ilmiy meros yaratganlar. Ana shunday ilmiy an’anani davom ettirgan yirik mutakallimlardan biri — Ahmad ibn Mahmud ibn Abu Bakr Nuriddin Sobuniy bo‘lib, u hanafiy-maturidiy aqidaviy maktabining eng faol va eng sermahsul vakillaridan biri sifatida tanilgan.

Tarixiy tabaqot kitoblari, qo‘lyozma kataloglari hamda zamonaviy tadqiqotlarda Sobuniy Movarounnahr ilmiy an’anasini chuqur o‘zlashtirgan, kalom ilmidagi murakkab masalalarni sodda va izchil tarzda sharhlagan yetuk mutafakkir sifatida tilga olinadi. Uning ilmiy faoliyati Abu Mansur al-Maturidiyning aqliy-naqliy yondashuvini davom ettirgan holda, hanafiy aqidaviy tamoyillarni tartibli tizimga solish, ularga mantiqiy asos berish va ularni zamonasining teologik bahs-munozaralarida himoya qilish bilan ajralib turadi. Xususan, Sobuniyning Faxriddin Roziy kabi mashhur allomalar bilan olib borgan ilmiy bahslari uning nafaqat mahalliy, balki mintaqaviy ilmiy doiralardagi yuksak mavqeini ko‘rsatadi.

Sobuniyning ilmiy merosida “Bidaya fi Usulid Din”, “Kifaya fil Hidayah” hamda “Muntaqo min Ismat al-Anbiya” singari asarlar alohida o‘rin tutadi. Ushbu asarlar hanafiy-maturidiy aqidasi asosiy tushunchalarini ixcham, tushunarli, ammo mantiqiy dalillarga boy tarzda taqdim qilishi bilan ajralib turadi. Ularning qo‘lyozma nusxalari Turkiya, O‘zbekiston va boshqa mamlakatlar kutubxonalarida saqlanayotgani, asarning mintaqaga bo‘ylab keng tarqalganini tasdiqlaydi.

Bugungi globallashuv sharoitida turli diniy oqimlarning tez kengayishi, diniy tafakkurdagi chalkashliklar va tasavvurlarning bir-biriga qo‘shilib ketishi fonida an’anaviy islomiy maktablar, xususan, Maturidiylik asoslarini ilmiy tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Nuriddin Sobuniy merosining qayta o‘rganilishi aqidaviy barqarorlik, diniy-ma’rifiy ishonchlik va sog‘lom e’tiqodiy tasavvurlarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Shu bois ushbu tadqiqotda Sobuniyning hayoti, ilmiy faoliyati, asarlari va ayniqsa “Bidaya fi Usulid Din” asarining ilmiy-nazariy mazmuni manbaviy asosda tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

Nuriddin Sobuniy Movarounnahrning XI–XII asrlardagi ilmiy-ma'rifiy muhitida yetishgan va hanafiy-moturidiy aqidaviy maktabining eng faol vakillaridan biri sifatida shakllangan. Uning hayoti va ilmiy merosi o'rta asr islomiy tafakkurining rivojida muhim bosqichni tashkil etadi. Sobuniyning asarlari, ilmiy bahslari va metodologik yondashuvlari uning kalom ilmida mustaqil mavqega ega bo'lganini ko'rsatadi.

Imom Nuriddin Sobuniy (vaf. taxm. 580-hijriy) hijriy VI asrda Movarounnahr hududida yetishib chiqqan moturidiylik maktabining eng yirik olimlaridan biri hisoblanadi. U aqida va kalom ilmi sohasida qimmatli ilmiy meros qoldirgan. Uning asarlari ixchamlik, aniqlik va uslubiy puxtalik bilan ajralib turadi hamda usul ad-din masalalarini bayon etishda aniq metodologik yo'nalishga ega.

Uning mashhur “Al-Bidoya fi usul ad-din” asari islom olamida keng tarqalgan eng muhim aqidaviy muxtasar kitoblardan biri bo'lib, ayniqsa Movarounnahr, Hindiston, Anatoliya va islom dunyosining boshqa keng hududlarida katta shuhrat qozongan. Nuriddin Sobuniyning shaxsiyati va asarlarining shakllanishi haqidagi ma'lumotlar tabaqot kitoblari, kalom ilmi manbalari va zamonaviy tadqiqotlarga tayanadi. Ushbu manbalar uni hanafiy-moturidiy maktabining rivojlanishidagi ikkinchi bosqichning yetuk namoyandalaridan biri ekaniga yakdil fikr bildiradilar.

“Al-Bidoya fi usul ad-din” asarining muallifi Nuriddin Sobuniyning to'liq ismi Abu Muhammad Ahmad ibn Mahmud ibn Abu Bakr Sobuniy al-Buxoriydir. U moturidiylik maktabining eng yirik vakillaridan biri sanaladi. Manbalarda u turli nomlar bilan zikr etiladi: “Nuruddin” (dinning nuri), “imom”, “imom Nuruddin Sobuniy”, “Nuruddin Sobuniy”³⁰ bo'lib, kalom ilmiga oid kitoblarning aksariyatida olim “Nuruddin Sobuniy”, “Sohibul hidoya” va “Sohibul Kifaya” taxallusi bilan keltiriladi. Ash'ariy olim Faxriddin ar-Roziy esa uning Buxoroda “Nur as-Sobuniy” nomi bilan mashhur bo'lganini qayd etadi³¹.

Olimning nega aynan “Sobuniy” taxallusi ila zikr etilganiga Abdulqodir Qurashiyning “Javahirul muziya” asarida keltirilishicha, “Sobuniy” so'zi dastlab sovun tayyorlashga va Naysobur shahridagi sovun ishlab chiqariladigan katta uyga nisbatan qo'llanilgan. Nuriddin

³⁰ Abdulqodir ibn Muhammad Qurashiy (1993). Javahirul muziya fi tobaqotil hanafiya // D. Abdulfattoh Muhammad tahqiqi. Qohira: Dor hijr. 302.

³¹ Pardayev, A. (2024). Life and Scholarly Activities of Nuriddin Sobuniy. Oriental Journal of History, Politics and Law, 4(10), 34–35.

Sobuniyning ba'zi ajdodlari o'sha uyda ishlab, faoliyat olib borganliklari uchun "Sobuniy" taxallusi bilan tanilgan. Shuningdek, olim vafot etgan joyi bo'lmish asl vataniga nisbatan "Buxoriy" taxallusini ham olgan³².

Olimning hayoti to'g'risida tabaqot kitoblarida keltirilgan ma'lumotlar bir-biriga yaqin va o'xshash bo'lgani uchun uning tug'ilgan joyi va sanasi keltirilgan ma'lumotlarni uchratish mushkul. Aksariyat tarojim kitoblari Sobuniyning Buxoro ilmiy maktabida tarbiya topganini tasdiqlaydi. Mazkur hududda Abu Mansur Moturidiyning aqliy-naqliy yondashuvi, Abu Muin an-Nasafiyning kalom maktabi va hanafiy fiqh an'analari kuchli ildiz otgan bo'lib, Sobuniy ham aynan shu muhitda ilmiy jihatdan kamol topgan. Uning ustozlaridan biri sifatida Shamsul-aimma Kardariy tilga olinadi. Bu esa Sobuniyning nafaqat aqida, balki fiqh va usul ilmlarida ham puxta yetuk bilimga ega bo'lganini ko'rsatadi.

Shubhasiz, har bir olimning yetarlicha shogirdlari bo'lib, ularning aksari ustozining vafotidan keyin uning ilmini o'zgalarga tarqatishda xizmat qiladi. Shu kabi katta ehtimol bilan Nuriddin Sobuniyning ham ortidan qolgan yoki tiriklik chog'ida undan ta'lim olgan shogirdlari bor bo'lgani haqiqatga yaqindir. Lekin tadqiqod davomida tarojim kitoblarida u kishining shogirdlari haqida ma'lumotlar uchramadi.

Bizgacha yetib kelgan aksariyat tabaqot kitoblarida olim 580-hijriy (1184-milodiy) yilda vafot etgani va Buxoro shahridagi "Quzotu Sab'a" qabristoniga dafn etilgani keltirilgan³³. Uning ilm talabida qaysi shaharlarga borganligi va kimlardan ta'lim olgani haqida aniq ma'lumotlar kelmagan. Movarounnahr hududida Faxriddin ar-Roziyning hanafiy-moturidiy olimlar bilan olib borgan munozaralari orasida Nuriddin Sobuniy bilan bo'lgan bahslar ham zikr qilinadi. Ushbu munozaralar Nuriddin Sobuniyning umrining oxirlarida Makka mukarramaga haj qilish maqsadida safar qilgani, shuningdek Xuroson va Iroq shaharlaridagi ilmiy majlislarda ishtirok etganini ko'rsatadi.

Nuriddin Sobuniyning ilmiy mavqeini uning asarlaridan va olimlar bilan olib borgan munozaralaridan bilish mumkin. Bizgacha uning munozaralaridan faqat ikkitasi yetib kelgan. Shulardan eng mashhuri — ash'ariy olim Faxriddin ar-Roziy bilan bo'lgan munozaradir. Bu munozaraning tafsilotlarini faqat Roziyning o'zi rivoyat qilgan, boshqa manbalarda esa u haqida ma'lumot uchramaydi.

Roziyning so'zlariga ko'ra, ular moturidiylar va ash'ariylar o'rtasida baxsli bo'lgan uch asosiy masalada munozara qilgan. Bu masalalar:

1. Allohni ko'rish (ru'yatullah) masalasi

³² Pardayev, A. (2024). Life and Scholarly Activities of Nuriddin Sobuniy. *Oriental Journal of History, Politics and Law*, 4(10), 34–35

³³ Abulhasanot Laknaviy (1906). *Favaidul bahiya fitarajimil hanafiya*. Qohira: Dorus sa'ada h, 42.

2. Takvin va mukavvan masalasi

3. Baqo' masalasi

Roziyning ta'kidlashicha, Sobuniy Abu Mu'in an-Nasafiy (vaf. 508-hijriy / 1114-milodiy)ning "Tabsirat al-adilla" asari asosida kalom ilmini egallagan va undagi ma'lumotlarga e'tiqod qilishini aytib o'tgan³⁴.

Nuriddin Sobuniydan bizgacha yetib kelgan ikkinchi munozara — uning shayx Rashididdin bilan bo'lgan munozarasidir. Bu munozara: "Yo'q narsa (ma'dum) ko'riladimi yoki yo'qmi?" degan masala atrofida bo'lgan va fors tilida olib borilgan. Mazkur munozarani Abul Barakot Nasafiy o'zining "Al-Umda fil i'tiqod" asarida arab tilida zikr qilib o'tgan. Munozara natijasiga ko'ra, Nuriddin as-Sobuniy ustun kelgan, shayx Rashididdin esa uning fikrini qabul qilgan³⁵.

Sobuniyning ilmiy faoliyatiga nazar solinsa, olimning asarlari sodda va tushunarli tilda yozilganiga guvohi bo'lish mumkin. Olim asarlarida Abu Mansur Moturidiy va Abul Muin Nasafiyning qarashlarini ilgari surib, ushbu xizmatlari ila Moturidiylik ta'limotining tartibli bir mazhab sifatida shakllanishida o'z hissasini qo'shgan. Tarixchilar Sobuniyga faqatgina ikki asarni nisbat beradilar:

- "Al-Kifoya fil hidoya"
- "Al-Bidoya minal-kifoya fil hidoya fi usulid-din"

Ammo Sobuniyning o'zi, "Kifaya fil hidaya" kitobining nubuvvat masalalari mavzusida "Al-Muntaqo fi ismatil anbiyo" asariga ishora qilib ketgan.

1. Sobuniyning eng mashhur asari — "Bidaya fi Usulid Din" — hanafiy moturidiy aqidasiining muxtasar, ammo tartibli bayon etilgan ilmiy risolasidir. Asar qisqa bo'lishiga qaramay, aqidaviy masalalarni tartibli, mantiqiy va keng dalillarga tayanib yoritadi. Ushbu asar, muallifning "Kifaya fil hidaya" kitobining talxisi (ya'ni qisqartmasi) hisoblanadi. "Kifaya fil hidaya" kitobi "Bidaya" kitobidan oldin yozilgan bo'lib, olim kitob muqaddimasida bunga ishora qilib ketgan³⁶. "Bidaya fi Usulid Din" muallifning asarlari orasida eng ko'p tarqalgani va zamondosh olimlar orasida mashhurrogi hisoblanadi. Ushbu kitobning ixcham va muxtasar tarzda yozilgani uni keng tarqalishiga sabab bo'lgan. Moturidiy nomi "Al-Bidoya" kitobida bir necha bor tilga olinadi. Shuningdek, Moturidiy "Kitob at-tavhid" asarida ishlatgan ko'plab atamalar ham ushbu kitobda takror uchraydi.

Asarda quyidagi masalalar markaziy o'rin egallaydi:

³⁴ Nuriddin Sobuniy (1969). Bidaya minalkifaya fil hidaya fi usulid din // Fathulloh Xulayf tahqiqi. Misr, Dorul maorif, 4.

³⁵ Nuriddin Sobuniy (1969). Bidaya minalkifaya fil hidaya fi usulid din // Fathulloh Xulayf tahqiqi. Misr, Dorul maorif, 5.

³⁶ Nuriddin Sobuniy (1969). Bidaya minalkifaya fil hidaya fi usulid din // Fathulloh Xulayf tahqiqi. Misr, Dorul maorif, 32.

- Allohning mavjudligi va sifatleri — Moturidiy ta’limotiga xos ravishda sifatlerin g qadimligi, zoti bilan alohidaligi, takvin sifatining mavjudligi asoslab beriladi.
- Imon masalasi — Sobuniy imon va amal munosabatida hanafiylarning “Imon miqdor jihatidan o‘zgarmaydi.” qoidasini himoya qiladi.
- Nubuvvat — Payg‘ambarlarning ma’sumligi, mo‘jizalar va risolatning zarurligi dalillangan.
- Qadar masalasi — Aql va naql uyg‘unligi asosida inson ixtiyori hamda ilohiy taqdirning o‘zaro nisbati yoritiladi. Shuningdek kalom ilmiga oid ilmiy meros hisoblanuvchi asarlarda keltirilgan o‘nlab masalalarni o‘z ichiga qamrab olgan

Asarning eng katta yutug‘i — murakkab kalomiy masalalarni sodda, tushunarli va tartibli iboralar bilan bayon qilganidir.

“Al-Bidoya fi usul ad-din” asari islom aqidaviy maktablari o‘rtasidagi kalomiy bahslar ayniqsa kuchli bo‘lgan davrda — ash‘ariylar, moturidiylar, hanbaliylar va mu‘taziliylar o‘rtasidagi ixtiloflar avj olgan paytda yozilgan. O‘sha davr olimlari yodlash va boshlang‘ich ta’lim uchun qulay bo‘lgan qisqa aqidaviy matnlar tuzishga alohida e’tibor berganlar. Shu sababli as-Şobuniyning kitobi ixcham, ravshan va yodlashga qulay, moturidiy aqidasi-ning eng muhim masalalarini o‘zida jamlagan holda yozilgan.

Qo‘lyozma nusxalarda bu kitob turli nomlar bilan uchraydi, jumladan:

- “Al-Bidoya”
- “Al-Bidoya min al-kifoya fi usul ad-din”
- “Al-Bidoya min al-kifoya fi-l-hidoya fi usul ad-din”
- “Muxtasar al-kifoya fi-l-hidoya”
- “Mulaxxas al-kifoya fi-l-hidoya”
- “Talkhis al-kifoya”
- “Bidoyat muxtasar al-hidoya” va boshqalar³⁷.

Bu nomlarning ko‘pligi kitob “Al-Kifoya fi-l-hidoya” asaridan qisqartirilganini yaqqol ko‘rsatadi.

Turk tadqiqotchisi Muhammad O‘rushi “Al-Kifoya fi-l-hidoya” asari ustidagi tadqiqotida “Al-Bidoya fi usul ad-din” kitobining qo‘lyozma nusxalari quyidagi kutubxonalarda saqlanishini aniqlagan:

- Sulaymoniya kutubxonasi — 2271
- Sulaymoniya kutubxonasi, Oshir Afandi bo‘limi — 181
- Topqopi saroyi muzeyi kutubxonasi — 1880, 1884
- Boyazid Valiuddin kutubxonasi — 2128, 2129, 2184

³⁷ Nuriddin Sobuniy Buhoriy _ “Al Bidoya fi usulid din” T.:”hilo nashr”, 2020._5.

- Shahid Ali Posho nusxasi — 1704
- Asmo Xon Sulton nusxasi — 242
- As'ad Afandi nusxasi — 432
- Qosidachi Zoda nusxasi — 735
- Hoji Salim O'g'a nusxasi — 654
- Misr Milliy kutubxonasi (Qohira), Kalom bo'limi — 308

Bu kitobni birinchi bo'lib ilmiy jihatdan o'rgangan olim — Fathulloh Xalif bo'lib, u tadqiqotida Tyubingen va Eskurial nusxalariga tayangan³⁸. Kitob ilk bor 1969-yilda Iskandariyada “Al-Bidoya min al-kifoya fi-l-hidoya fi usul ad-din” nomi bilan chop etilgan. Keyinchalik Bakr Tubal O'g'li Istanbul kutubxonalaridagi nusxalarga asoslanib kitobni tahqiq qilgan³⁹.

XULOSA

Yuritilgan tadqiqotlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, Nuriddin Sobuniy Movarounnahrning ilmiy-ma'rifiy maktabi shakllanishi va Maturidiya ta'limotining mustahkamlanishida markaziy o'rin egallagan mutakallimlardan biridir. Uning ilmiy faoliyati kalom ilmining o'rta asrlardagi rivojlanish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatgan bo'lib, aqidaviy masalalarning tartibli, mantiqiy va lo'nda uslubda bayon etilishida Sobuniyning hissasi alohida ajralib turadi.

Sobuniyning asarlari tahlili shuni ko'rsatadiki, u murakkab teologik masalalarni umumlashtirish, aniq dalillash va aqliy-naqliy uyg'unlik asosida sharhlashda yuksak mahoratga ega bo'lgan. “Bidaya fi Usulid Din”ning o'quvchilar uchun qulay tuzilgani, “Kifaya fil Hidaya”da masalalarning keng va chuqur bayon etilgani hamda “Muntaqo min Ismat al-Anbiya”da anbiyolar ma'sumlighi masalasining qat'iy metodologik asoslarda tushuntirilgani olimning ilmiy uslubi doimo mantiqiy aniqlik va aqidaviy aniqlikni o'rtaga qo'yganini tasdiqlaydi.

Faxriddin Roziy bilan bo'lgan mashhur munozaralari Sobuniyning ilmiy salohiyatini yanada yorqinroq ko'rsatadi. Roziy — o'z davrining eng kuchli mutafakkirlaridan bo'lib, Sobuniyning u bilan ilmiy tenglik darajasida bahs yurita olishi uning chuqur bilimga, keng dunyoqarashga va qat'iy metodologik pozitsiyaga ega mutakallim bo'lganini isbotlaydi. Bu munozaralar nafaqat Sobuniyning shaxsiy ilmiy mavqeini oshirgan, balki Maturidiya maktabining ilmiy himoyasida ham muhim qadam bo'lgan.

Shuningdek, manbalar tahlili Sobuniyning merosi faqat aqidaviy masalalar bilan cheklanmasligini ko'rsatadi. U fiqh va usul ilmlarida ham yetuk bilimga ega bo'lgan, bu esa

³⁸ Pardayev, A. (2024). *Life and Scholarly Activities of Nuriddin Sobuniy*. Oriental Journal of History, Politics and Law, 4(10), 32–42.

³⁹ Nuriddin Sobuniy Buhoriy _ “Al Bidoya fi usulid din” T.:”hilol nashr”,2020._5.

uning teologik qarashlarining poydevori mustahkam ekanini bildiradi. Ustoz-shogird silsilasidagi barqarorlik ham uning ilmiy merosining keyingi avlodlarga uzluksiz o‘tgani dan dalolat beradi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda Sobuniyning merosiga qayta murojaat qilinayotgani, qo‘lyozmalar nashr etilayotgani — bu merosning bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, hozirgi diniy-ma‘rifiy muhitda sog‘lom aqidaviy qarashlarni mustahkamlash ehtiyoji kuchaygan bir paytda, Sobuniyning aqidaviy tizimni mantiqiy asoslashga qaratilgan metodologiyasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, Nuriddin Sobuniyning ilmiy faoliyati Moturidiya teologiyasining ikkinchi bosqichi — tasnif qilish va ilmiy tizimlashtirish davrining poydevorini mustahkamlab bergan. Uning asarlari bugungi kunda ham o‘z ilmiy qiymatini yo‘qotmagan bo‘lib, kalom ilmini o‘rganayotgan tadqiqotchilar uchun muhim manba sifatida qolmoqda. Sobuniyning teologik qarashlari, metodologik yondashuvi va ilmiy jasorati Movarounnahrning intellektual merosini chuqur aks ettiradi hamda islomiy ilm-fan tarixida o‘ziga xos barqaror o‘rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abulhasanot Laknaviy (1906). *Favaidul bahiya fi tarojimil hanafiya*. Qohira: Dorus sa‘adah.
2. Hoji Xalifa (1941). *Kashfuz zunun a’n asamail kutub val funun*. Bayrut: Dor ihyaut turos.
3. Laknaviy, A. (1906). *Fawā’id al-Bahiyya fi Tarājim al-Hanafiyya*. Cairo: Dār as-Sa‘adah.
4. Nuriddin Sobuniy (1969). *Bidaya minal kifaya fil hidaya fi usulid din* // Fathulloh Xulayf tahqiqi. Misr, Dorul maorif.
5. Nuriddin Sobuniy Buhoriy _”Al Bidoya fi usulid din” T.:”hilol nashr”, 2020.
6. Pardayev, A. (2024). *Life and Scholarly Activities of Nuriddin Sobuniy*. *Oriental Journal of History, Politics and Law*, 4(10), 32–42.
7. Qurashiy, A. (1993). *Javāhir al-Muḍiyya fi Ṭabaqāt al-Hanafiyya*. Cairo: Dār al-Hijr.
8. Salim Buxoriy, S. (2012). *Buxoroning Tabarruk Ziyoratgohlari*. Buxoro.